

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI**



**RAQAMLI JAMIYATDA FAN VA TA’LIMNING INTEGRATSIYALALASHUVI:
MATEMATIKA, IQTISOD, PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING YANGI
YONDASHUVLARI**
mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 20-21-aprel)

JIZZAX-2026

Raqamli jamiyatda fan va ta’limning integratsiyalalashuvi: matematika, iqtisod, pedagogika va psixologiyaning yangi yondashuvlari. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to’plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrası, 2026-yil 20-21-aprel 505-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to’plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo’nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o’qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Tovboyev, t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O’ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo’rayev M.M.

Mazkur to’plamga kiritilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to’g’riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o’zlari mas’uldirlar.

3. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
4. Jalolov J. J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.
5. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

FRAZEOLOGIK TIZIMDA ERKAK OBRAZINING DONOR KONSEPTUAL ZONALAR ASOSIDA SEMANTIK TALQINI

Qoraqo ‘ziyeva Diyora
Andijon davlat universiteti doktoranti
diyoraotajonova17@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada frazeologik tizimda erkak obrazi donor konseptual zonalar asosida semantik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda erkaklikni ifodalovchi frazeologik birliklarning manba sohalari aniqlanib, ularning kognitiv asoslari hamda madaniy-milliy xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, erkak obrazining kuch, jasorat, ijtimoiy rol va xarakter bilan bog‘liq semantik komponentlari ochib berilib, til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: biologik jins, kognitiv marker, formla marker, pragmatik marker, donor konseptual zona, metaforik proyeksiya, zoomorf birlik.

Biz genderni til birliklarida “biologik jins”ning bevosita aksi sifatida emas, balki jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik rollar, maqomlar, xulq me‘yorlari va ularga bog‘langan baho-mezonlarning lisoniy ko‘rinishi sifatida talqin qilamiz.

Gender masalasi tilshunoslik doirasiga kirib kelishi bilan u, avvalo, “*til – ideologiya – ijtimoiy amaliyot*”ning o‘zaro aloqadorligi doirasida talqin qilina boshladi. Mazkur yondashuv tilni faqat kommunikativ yoki referensial vazifani bajaruvchi neytral tizim sifatida emas, balki ijtimoiy ongda shakllangan qadriyatlar, stereotiplar va hokimiyat munosabatlarini aks ettiruvchi murakkab semantik-pragmatik mexanizm sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatdi. Ayniqsa gender tadqiqotlarida til ijtimoiy tartibotlarni aks ettiribgina qolmay, balki ularni qayta ishlab chiqaruvchi va mustahkamlovchi diskursiv vosita sifatida qarala boshladi³⁰.

Frazeologik tizimda gender semantikasi ikki rejimda ro‘yobga chiqadi: eksplitsit (ochiq) va implitsit (yashirin).

Eksplitsit rejimda iboraning tarkibiy tuzilishi (komponentlari) jinsni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatadi: qarindoshlik terminlari (father/son; ota/o‘g‘il), ijtimoiy rol nomlari (husband; er), yoki antroponimik markerlar (erkak, yigit, мужик va h.k.). Gender markerlarini lisoniy tasniflash amaliyotida bunday komponentlarning uch ko‘rinishi ajratiladi: *atoqli otlar, jinsni bildiruvchi turdosh otlar* hamda *olmoshlar*³¹.

Mazkur nazariy yondashuvga tayanib, tadqiqotimiz obyekti uchun tanlab olingan kartoteka doirasida ingliz, o‘zbek va rus tillari materiallari kesimida tahlil qilinib, gender semantikasiga ega frazeologik birliklar lingvokognitiv mezonlar asosida tahlilga tortishni maqsadga muvofiq deb bildik: frazeologik fond tarkibida erkak va ayol obrazlarini ifodalovchi birliklar ajratilib, ularning semantik yo‘nalishi, metaforizatsiya zonasi hamda nutqiy qo‘llanish xususiyatlari

³⁰ Cameron D. Gender and Language Ideologies. // Journal of Sociolinguistics. – 2003. – Vol. 7, No. 4. – P. 447–467.

³¹ Баранов А.Н. Дескрипторная теория метафоры // Вопросы языкознания. – 1994. – № 1. – С.14–25.

aniqlanib, frazeologik tizimda gender tasavvurlarining qanday lingvistik shakllarda kodlanishini hamda ularning madaniy-ijtimoiy asoslarini aniqlash imkoniga ega bo‘lish mumkin.

Implitsit rejimda frazeologik birlik tarkibida jinsni bevosita ifodalovchi leksema ishtirok etmasligi mumkin, biroq uning semantik mazmuni hamda pragmatik bahosi erkaklikka xos ijtimoiy rol va kutilmalarni ramziy shaklda ifodalaydi va ko‘pincha jamiyatda qaror topgan ijtimoiy tasavvurlarni o‘zida aks ettiradi. Mazkur jarayonda frazeologizm semantik jihatdan qisqa bo‘lsa-da, ijtimoiy tajriba va normativ qarashlarning yig‘indi shaklini ifodalaydi. Shu sababli ibora tarkibida jinsga oid nomlash mavjud bo‘lmagan taqdirda ham, uning semantik strukturasida erkak yoki ayolga xos rol va vazifalar haqidagi tasavvurlar faollashadi.

Biz eksplitsit–implitsit farqlanishini faqat “bor/yo‘q” oppozitsiyalari deb emas, balki gradual hodisa deb ko‘ramiz. Masalan, bir ibora tarkibida erkak/ayol leksemasi bo‘lishi mumkin, lekin asl gender mazmuni baho (mardlik, nomardlik, nomus, xiyonat va h.k.) orqali kuchaytiriladi; yoki aksincha, gender leksemasi yo‘q, ammo “oila boshlig‘i”, “uy egasi”, “jangchi” kabi diskurs rollari anglashiladi. Shu bois biz tahlilda uchta mezonni birga ishlatdik:

(a) formal marker – genderga oid leksik yoki grammatik ko‘rsatkichlarning mavjudligi;

(b) kognitiv marker (ichki obraz) – nutq birligi ortida yotuvchi konseptual tasavvur va stereotiplarning mavjudligi;

(c) pragmatik marker – nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va ijtimoiy kontekst asosida yuzaga keladigan yashirin yoki ochiq gender implikasiyalari.

Gender semantikasiga ega frazeologik birliklarning shakllanishida metaforizatsiya muhim kognitiv-semantik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Metaforik modellash tirish masalasi A.Baranovning yondashuvlarida ikki bilim sohasi o‘rtasidagi konseptual proyeksiyaga tayanadi – donor zona va retsipient zonalar³².

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, erkak siymosi tillarda ko‘pincha konkret tajribaga asoslangan donor zonalar orqali konseptuallashtiriladi. Frazeologik tizimda erkaklik tasavvuri tillarda tana (jismoniy kuch), qurol (jangovarlik), hayvon (instinkt va quvvat), kasb (ijtimoiy rol), hokimiyat (hukmronlik), ot-ulov yoki transport (harakat va nazorat) va h.k. kabi bevosita kuzatiladigan tajriba sohalari asosida metaforik modellash tiriladi, ya’ni *kuch*, *faoliyat*, *hukmronlik* yoki *nazorat* bilan bog‘langan semantik komponentlar orqali shakllanadi.

Metaforaning “donor zona–retsipient zona” terminlari bilan qo‘llanilishi ham bizning modellash jarayonimizga qulaylik beradi. Biz aynan “donor konseptual zona” atamasini frazeologik ichki obrazni tizimli guruhlash vositasi sifatida qabul qildik: iboraning ichki obrazini (masalan, *hayvon*, *qurol*, *ot*, *metall*, *kiyim*) donor zona sifatida ajratib, u orqali “erkak” siymosi qanday semantik komponentlar bilan faollashishini ko‘rsatishga urindik.

Metaforik proyeksiya mexanizmida *donor zona* → *kognitiv xarita* asosiy izohlovchi model sifatida qabul qilamiz, chunki aynan shu mexanizm orqali konkret tajribaga mansub konseptual sohalardan genderga oid abstrakt tasavvurlar tizimiga ma’no ko‘chishi amalga oshadi.

Tahlillarimis asosida o‘zbek, rus, ingliz tillari materiallarida erkak siymosini voqelanishida eng ko‘p uchraydigan donor zonalar quyidagi yirik konseptual to‘plamlarga yig‘ildi: *zoomorf zona*, *fitomorf*, *artefaktomorf*, *naturamorf*, *sotsiomorf*, *mifomorf* va *teomorf zonalar* – ular har bir til va madaniyatda bir xil chastotada bo‘lmasa-da, umumiy mexanizmlar nisbatan o‘xshashdir.

Xususan, tillar frazeologik tizimida inson obrazini modellash tirishda eng faol semantik manbalardan biri zoomorf donor zona hisoblanadi: unda donor sifatida hayvonot olami bilan bog‘liq obrazlar faollashadi. Zoomorf metaforalarda hayvonlarga xos biologik yoki xulqiy

³² Баранов А.Н. Дескрипторная теория метафоры // Вопросы языкознания. – 1994. – № 1. – С.14–25.

xususiyatlar inson xarakterini tavsiflash uchun semantik manba vazifasini bajaradi³³ va erkak obrazining jasorati, kuchi, makkorligi, tajovuzkorligi yoki sodiqligi kabi xususiyatlarni tasvirlashda qo‘l keladi. T.Y.Alekseyeva ta’biri bilan aytganda, zoomorf metaforalarga asoslangan deyarli barcha birlıklar inson bilan bog‘liq holda talqin qilinadi; ular insonning xarakter xususiyatlari, xulq-atvori hamda atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini bilvosita (ramziy tarzda) tasvirlaydi³⁴.

Masalan, o‘zbek frazeologiyasida erkak obraziga daxldor zoomorf birliklar orasida *sher yurak, arslon yurak, sherday yigit, bo‘riday och, bo‘ri qarash qilmoq, itdek sodiq, qo‘ydek yuvosh, eshakday qaysar, xo‘rozday kerik, jo‘jaxo‘rozday xezlanmoq, qari tulki* kabi o‘xshatishlar va *oq otdagi shahzoda, arslon izidan qaytmaydi, yigit so‘zidan qaytmaydi, bo‘ri qarisa ham bitta qo‘yga kuchi yetar, qo‘y bo‘lsang, qassob ko‘p* kabi paremiologik birliklar keng tarqalgan. Ushbu birliklarda hayvon obrazlari inson xarakterining muayyan jihatlarini ifodalash uchun metaforik manba sifatida ishlatiladi. O‘zbek badiiy adabiyotida, boshqa tillarda bo‘lgani singari, erkakning jasorati va mardligini tasvirlash uchun *sher yurak* birligi tez-tez uchraydi. Masalan:

Is‘hoq yana Darautqo‘rg‘onga qaytib keldi. Qasoslarning sillasi tamoman qurigandi. Sheryurak, tolmas bilak yigitlarning ha degani holi qolmagandi. Hech birining xayoliga endi nima qilamiz, degan fikr kelmasdi. (Qoimbekov T., Singan qilich) – matn kontekstida bu birlik personajlarning qahramonlik sifatlarini ta’kidlab, voqeaning dramatik ohangini kuchaytirganiga guvoh bo‘lish mumkin. Metaforik proyeksiyada sherning yirtqichligi va kuchi inson jasorati bilan qiyoslanib, jasur erkak obrazining semantik modeli hosil bo‘ladi.

Ingliz tilida ham erkak obrazini ifodalovchi zoonim frazeologizmlar ko‘pincha yirtqich hayvonlar asosida shakllanib, erkaklik stereotipining tarixiy-madaniy tasavvurlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Kognitiv-semantik nuqtai nazardan bunda donor zona sifatida hayvon nomi va unga birikkan milliy-madaniy tasavvurlar, retsipient zona sifatida esa erkakka xos deb ijtimoiy ongda barqarorlashgan jasorat, kuch, qat’iyat, hukmronlik, mustaqillik, tajovuzkorlik, chidamlilik, kuzatuvchanlik kabi fazilatlar yuzaga chiqadi. Shu bois zoonim komponentli frazeologizmlarni shunchaki ifodaviy vosita emas, balki erkaklik haqidagi madaniy modelni til orqali shakllantiruvchi va mustahkamlovchi semantik mexanizm sifatida talqin qilishimiz mumkindir.

Ingliz tilidagi frazeologik materiallar ichida erkak siymosini gavdalanitirishga bevosita yoki bilvosita xizmat qiluvchi zoonim birliklar qatoriga *lion-hearted, brave as a lion, fight like a lion, a lion in battle, lone wolf, wolf among sheep, wolfish, strong as a bull, bull in a china shop, bull-headed, a raging bull, cock of the walk, a fighting cock, top dog, underdog, eagle-eyed, hawk-eyed, an old war horse, dark horse, tigerish, stubborn as a mule* kabi birliklarni kiritish mumkin. Ularning sezilarli qismi ingliz madaniy-semantik maydonida aynan erkak obraziga tez-tez proyeksiya qilinadi. Masalan, *sher* obrazi jasorat va rahnamolikni, *bo‘ri* obrazi mustaqillik va xavfli individuallikni, *buqa* jismoniy qudrat va bosim kuchini, *xo‘roz* esa namoyishkorona hukmronlik hamda ustunlik da’vosini ifodalaydi.

Ayniqsa, *lion-hearted* birligi erkak jasorati va qahramonligini ifodalovchi eng markaziy metaforik modellar sirasiga kiradi:

“He was lion-hearted and fearless in the face of danger” (Scott, Ivanhoe, p. 214)

³³ Зенкова Т. В. Гендерный аспект зооморфных номинаций человека в русском и английском языках // Eurasian Journal of Philology. Science and Education. – 2011. – Т. 131. – №. 1.

³⁴ Алексеева Т. Е. Зооморфные метафоры в английских пословицах: лексико-семантический анализ // Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия Филология. Журналистика. – 2025. – Т. 25. – №. 3. – С. 266-273.

Bu yerda “sher” obrazi shunchaki kuch belgisi emas, balki xavf oldida ortga chekinmaslik, sharafni himoya qilish va rahbarlik salohiyati bilan bog‘langan ramziy timsoldir. Ingliz adabiy an‘anasida bu birlik va unga yaqin ifodalar ko‘pincha jangovar, feodal yoki qahramonlik kontekstlarida ishlatiladi. Masalan, “*Richard the Lion-hearted*” birikmasi tarixiy-romantik diskursda nafaqat laqab, balki idealizatsiya qilingan erkaklik modelining verbal belgisi sifatida faoliyat ko‘rsatadi: bunda jasorat individual psixologik belgi emas, balki hukmdorlik legitimatsiyasining bir qismiga aylanadi. Shu sababli sher obrazi orqali qurilgan metafora erkak obrazining ikkita qatlamini birlashtiradi: birinchisi – fizik va ruhiy dovyuraklik, ikkinchisi – boshqaruvga va ustun mavqega da’vo.

Xulosa qilib qytganda, frazeologik tizimda erkak obrazi donor konseptual zonalar orqali ko‘p qirrali semantik mazmunga ega bo‘lib, unda kuch, jasorat, qat’iyat va ijtimoiy mas’uliyat kabi belgilar ustuvorlik qiladi. O‘zbek tilida erkak obrazi ko‘proq an’anaviy qadriyatlar, oilaviy yetakchilik va mardlik bilan bog‘langan bo‘lsa, ingliz tilida u individualizm, mustaqillik va shaxsiy muvaffaqiyat kabi tushunchalar bilan ifodalanadi. Har ikkala tilda ham erkak obrazi ijobiy va salbiy xususiyatlar orqali ifodalanib, jamiyatning madaniy va ijtimoiy qarashlarini aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Cameron D. Gender and Language Ideologies. // Journal of Sociolinguistics. – 2003. – Vol. 7, No. 4. – P. 447–467.
2. Баранов А.Н. Дескрипторная теория метафоры // Вопросы языкознания. – 1994. – № 1. – С.14–25.
3. Зенкова Т. В. Гендерный аспект зооморфных номинаций человека в русском и английском языках //Eurasian Journal of Philology. Science and Education. – 2011. – Т. 131. – №. 1.
4. Алексеева Т. Е. Зооморфные метафоры в английских пословицах: лексико-семантический анализ //Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия Филология. Журналистика. – 2025. – Т. 25. – №. 3. – С. 266-273

INGLIZ TILI DARSLARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI: TEXNOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA ILMIY- METODOLOGIK TAHLIL

Mavlonova Dildora Shuxrat qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

E-mail: dildoramavlonova18051995@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tili darslarida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik asoslari texnologik yondashuv kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqot 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi doirasida olib borilgan bo‘lib, konstruktivistik, kompetensiyaviy va refleksiv yondashuvlarning integratsiyasi asosida metodik model taklif etiladi. Tajriba-sinov natijalari o‘quvchilarning tahliliy, interpretativ va baholovchi kompetensiyalarida ijobiy dinamikani ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, pedagogik texnologiya, didaktik tamoyil, ingliz tili ta’limi, refleksiya, kompetensiyaviy yondashuv.

Abstract: This article examines the didactic principles for developing students’ critical thinking skills in English language lessons within a technological and competence-based framework. The study is grounded in constructivist and reflective approaches to foreign language education. A structured pedagogical model was designed and experimentally tested in secondary